

---

## Bugun O'zbekiston mahallalari uyushmalari Farg'ona viloyati boshqarmasi boshlig'i Adxam Ziyaviddinov Toshloq tumanidagi mahallalar faoliyati bilan yaqindan tanishdi

Adxam Ziyaviddinov tumandagi "Piyozchilik", "Qanjirg'a" hamda "Axshak" MFYlarda bo'lib, "Mahalla yettiligi" faoliyati bilan tanishdi. MFY raislari, hokim yordamchilar, profilaktika inspektorlari, soliq inspektorlari, xotin-qizlar faoli, yoshlар yetkachilari bilan suhbatlashdi. Mahallalarda aholi muammolarini o'rGANISH va hal etish, aholi orasida tadbirkorlikni keng rivojlantirish, migratsiya masalalari, aholi bandligini ta'minlash, oilalarni mustahkamlash, ma'naviy va ma'rifiy, yoshlар tarbiyasi kabi yo'nalishlarda fikr almashildi.

Shuningdek, A. Ziyaviddinov "Piyozchilik" MFYda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishib, mahalla faollari bilan uchrashdi. Ayni kunlarda mahallada "Obod xonadon – obod ko'cha – obod mahalla" mezonlarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Shundan so'ng, "Qanjirg'a" MFYda tomorqadan samarali foydalayotgan, issiqxonalarda daromad topayotgan xonadonlar ham tanishtirildi.

2024-02-02 15:47:46